**Farg‘onaazot**
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz
www.azot.uz
fargonaazot.uz
AO Farg’onaazot
info@azot.uz
t.me/fargona_azot

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

# Kimyogar

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

10-son (1722)
2023-yil,
28-OKTABR.



# 21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

## O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga o‘ttiz to‘rt yil to‘ldi




# MILLATIMIZ G‘URURI — ONA TILIMIZ BAYRAMI KENG NISHONLANDI

**“Har birimiz davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz kerak!” –**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEV.**

**Ona tili... bu so‘zga juda ko‘p, uzun ta’rif berish mumkin. Lekin bu so‘zning uning naqadar ulug‘ faxr, baxt tuyg‘ularini qalblarga singdirishini anglab yetish esa, inson qalbida vatan tuyg‘usini naqadar mustahkam muhrlanganligi belgisidir. Necha asrlar turli xil tafovutlarga uchragan o‘zbek tili hozirda Davlatimiz rahbarining dono siyosati tufayli qaytadan qad ko‘tarib, qalin ildiz otib bormoqda. Shu tufayli, “O‘zbek tili bayrami” mamlakatimizning turli yerlarida katta tantanalar bilan nishonlandi. Shu o‘rinda, bizning jamiyatimizda ham millatimiz ruhi – ona tilimiz bayrami keng qamrovda nishonlandi.**

Bayram tadbirini boshqaruv raisi Dilshod Mannonov o‘zining tabrigi va mamlakatimizda o‘zbek tiliga qaratilayotgan e’tibor, Prezidentimiz tomonidan mazkur sohaga oid amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi nutqi bilan ochib berdi.

— Millat ruhi bo‘lmish — ona tilimizning 34 yilligi mamlakatimizning barcha yerlarida katta bayram etib nishonlanmoqda. Davlat tili bejizga — Ona tili deyilmagan. Zero ota-ona inson uchun qanchalik aziz va mukarram bo‘lsa, uning o‘zligi va ma’naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrli va mo‘tabar bo‘ladi – dedi Dilshod Erkinovich bayram tadbirida — So‘nggi yillarda Davlatimiz rahbari o‘zbek tilini rivojlantirish, uning hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini oshirish borasida yangi bosqich boshlab, uning mavqeini yanada oshirishga katta qadamlar qo‘ymoqda. Til borasida Prezidentimiz bir qator qarorlar, farmonlar va me’yoriy hujjatlar imzolab kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiya va alohida dastur hayotga joriy etilmoqda. Xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlab, tasdiqlab o‘tmoqda – korxona rahbari o‘z nutqini bayram tabrigi bilan yakunladi.

Bayramda korxona faol xodimlari ishtirokidagi bayram dasturi namoyish etildi. O‘zbek tili kelib chiqishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar, tilimiz madhi jo‘r bo‘lgan she’rlar, tilimiz jilosini o‘z ma’nosida yashirgan g‘azallar, kuy va qo‘shiqlar yangradi. Qutqaruv otryadi xodimi, bir talay tanlovlar g‘olibi, xushovoz xonanda Mirzohid Ahmedov o‘zining yangi qo‘shiqlari bilan bayram ishtirokchilarini xushnud etdi.

Bayram dasturi doirasida “21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni”ga bag‘ishlanib, xodimlar o‘rtasida millatimiz g‘ururi bo‘lmish ona tilimiz mavqeini yanada oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va keng targ‘ib qilish maqsadida “Ona tili — bu millatning ruhidir” shiori ostida o‘tkazilgan “Kitobxon-xodim” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari ma’muriyat Diplomlari, pul mablag‘lari bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, “21-oktabr O‘zbek tili kuni” munosabati bilan jamiyatning radioto‘lqinlari orqali millatimiz g‘ururi bo‘lmish ona tilimiz mavqeini yanada oshirish, unga bo‘lgan cheksiz faxrni xodimlarga yetkazishda ko‘rsatgan xizmati uchun Umarjon Abdurahmonov korxona ma’muriyati Tashakkurnomasi hamda kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg‘asi bilan taqdirlandi.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**









# “KITOBXON-XODIM” KO‘RIK-TANLOVI: “ONA TILI – BU MILLATNING RUHIDIR”

**“Yoshlarni kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim” — Shavkat MIRZIYOYEV.**

**“21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni”ga bag‘ishlanib, xodimlar o‘rtasida millatimiz g‘ururi bo‘lmish ona tilimiz mavqeini yanada oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va keng targ‘ib qilish maqsadida “Ona tili – bu millatning ruhidir” shiori ostida “Kitobxon-xodim” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.**




Tanlovda jamiyatning barcha sex va boshqarmalari xodimlaridan istak bildirganlar qatnashdilar. Tanlov shaffof va holis o‘tishini ta’minlash maqsadida hakamlar hay’ati a’zolarini soha mutaxassislari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Koreya Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi Muqaddasxon Ehsanova, Ahmad Farg‘oniy nomidagi Farg‘ona viloyat axborot-kutubxonasi mutaxassisi Gulasalxon Valiyevalar jalb etildilar.

Tanlov 3-boschiqda “O‘zbek adabiyoti bilimdoni”, “Jahon adabiyoti bilimdoni” va “Men sevib o‘qigan asar” bosqichlarida bo‘lib o‘tdi. Birinchi va ikkinchi shartlarda ishtirokchilar tuzilgan savollarni bilet tortish orqali tanlab olib, badiiy asar qahramonlari va badiiy asardan parchalarni qaysi asardan ekanligini topish usuli bilan baholarni qo‘lga kiritdilar. Uchinchi shartda esa ishtirokchi tomonidan sevib o‘qilgan asarning g‘oyasi, mazmuni, xulosalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida imlo qoidalariga amal qilgan holda to‘g‘ri annotatsiya yozilishi Nizom bo‘yicha belgilangan edi. 10 daqiqa ichida yozilgan annotatsiyalar hakamlar tomonidan baholab chiqildi.

Tanlov natijalariga ko‘ra, mutloq g‘oliblikni Ammiak 3 sexi xodimi Sodiqjon Qodirov qo‘lga kiritib, 8 000 000 so‘mni qo‘lga kiritdi. 2- o‘rinni Mochevina ishlab-chiqarish sexi xodimasi Manzura Pozilova egallab, 5 000 000 so‘mni hamda 3- o‘rinni Mochevina ishlab-chiqarish sexi xodimasi Muhlisa Ikromaliyeva egallab 3 000 000 so‘m pul miqdoriga sazovor bo‘ldilar.

“Kitobxon-xodim” ko‘rik-tanlovi sovrindorlari “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni”ga bag‘ishlangan bayram tadbirida taqdirlandilar. Oliy o‘rin egasi “O‘zkimyosanoat” AJda o‘tkaziladigan respublika bosqichiga, 2- turda ishtirok etish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Respublika bosqichida Ammiak 3 sexi xodimi Sodiqjon Qodirov o‘z ishtiroki uchun tashakkurnoma va qimmatbaho sovrin bilan taqdirlandi.

**O‘z muxbirimiz.**

# 11-NOYABR — O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi

**O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tarkibida 32,5 ming boshlang‘ich tashkilotlarni birlashtiruvchi 14 tarmoq kasaba uyushmalari mavjud, kasaba uyushmalariga a’zolarning soni 5,5 mln.dan ortiq bo‘lib, ulardan 2,5 mln.dan ziyodi ayollar va 2 mln. dan ziyodi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.**

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining VIII Qurultoyi bo‘lib o‘tgan 2020-yil 11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalarining hayotida unutilmas va tarixiy kun bo‘lib qoldi. Qurultoyda Davlatimiz rahbarining Kasaba uyushmalari federatsiyasi qurultoyi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida 11-noyabrni “Kasaba uyushmalari kuni” deb belgilash taklifi bildirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunga asosan “11-noyabr - O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” etib belgilangandi.

Bundan tashqari mazkur sananing bir yilligi munosabati bilan Prezidentimiz 11 -noyabrni — “Umumxalq bayrami” sifatida dam olish kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida taklif bildirdi va Farmon bilan “11-noyabr — O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni umumxalq bayrami” deb e’lon qilindi. Hujjatga muvofiq, 11-noyabr barcha uchun bayram sifatida dam olish kuni bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha joylarida ushbu sanaga bag‘ishlab turli tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Jumladan, “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida ham. Aytish lozimki, korxona kasaba uyushma qo‘mitasining joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo‘lib, ushbu tadbirlar keng miqyosda yuqori saviyada tashkil etilishiga mukammal harakat qilinmoqda.

Ma’lumki, kasaba uyushmalari maqsadi – o‘z a’zolarining mehnat hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini yoqlab chiqish va himoya qilishdir. Kasaba uyushmasi a’zolarini ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari amaldagi qonunchilik hamda jamoa shartnomasiga uzluksiz bog‘liqdir.

Kasaba uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan Jamoa shartnomasi — korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o‘rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soladigan me’yoriy hujjat. Jamoa shartnomalariga kiritilgan har bir majburiyat mehnatkashlarning turmush darajasini oshirishga, mehnat munosabatlari, mehnat muhofazasi, yoshlar hamda ayollarning ijtimoiy mavqeini oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, amaldagi qonunlarda ular uchun belgilangan imtiyozlar berilishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan.

“Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida ijtimoiy sheriklik asosida koxona mehnatkashlarini ijtimoiy-iqtisodiy himoyalashni yanada kuchaytirish maqsadida jamoa shartnomasi bo‘yicha 2023-yil 9 oyi davomida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, korxona xodimlarining yaqin – qarindoshi vafot etganligi munosabati bilan, sog‘ligini tiklashi uchun dori-darmon sotib olish, oilaviy sharoiti, jarrohlik amaliyoti o‘tkazilishi, birinchi marta nikohdan o‘tayotgan yoshlarga, korxonada ishlovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogiron farzand tarbiyalayotgan ishchi-xodimlarga moddiy yordamlar ko‘rsatildi. Ushbu ijtimoiy ko‘maklar uchun 740 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Sog‘lomlashtirish bo‘yicha xodimlarning yaqin qarindoshlari, shuningdek, ishchi-xodimlarni sog‘ligini tiklashi uchun Respublikamizda joylashgan sanatoriyalarda va tibbiy maskanlarda sog‘ligini tiklashi uchun kasaba uyushma a’zolik badali, xo‘jalik organi mablag‘i va ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan yo‘llanmalar ajratildi. Sog‘lomlashtirish uchun 720 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Shuningdek, “Taraqqiyot strategiya”sining 4-yo‘nalishiga asosan korxonada ommaviy sport tadbirlarini rivojlantirish, minifutbol, stol tennisi, shaxmat-shashka, voleybol, gimnastrada, armrestling sport turlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, yugurish marafoni, kamondan otish sport tadbirlari uchun hamda sex ishchi-xodimlarining sport bilan shug‘ullanishlari uchun sport jihozlari sotib olishga, sport musobaqasida faol ishtirok etgan jamoa a’zolariga esdalik sovg‘alar uchun 107 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Ta’kidlash lozimki, turizm tashkil etishga jamiyatda katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, jamiyat xodimlari uchun yurtimizning tarixiy va go‘zal shaharlariga, Samarqand, Namangan, Toshkent viloyatidagi dam olish maskanlariga turistik sayohatlar tashkil etildi. Mazkur sayohatlar uchun jami 252 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Xodimlari uchun ish davomida qulay sharoitlar yaratish, ish davomida foydalanish uchun xo‘jalik jihozlari hamda maishiy texnika vositalari, mebel jihozlari bilan ta’minlanib, 127 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Jamiyatda ma’naviy va ma’rifiy ishlarni yuqori saviyada o‘tkazilishi, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan ko‘rik-tanlovlarni, madaniy- ma’rifiy tadbirlar, umumxalq bayramlar “Navro‘z”, “8-Mart”, “Xotira va qadirlash kuni”, bayramini o‘tkazishda kasaba uyushmasi ishtiroki ta’minlandi. Kasb bayramlari ham shular jumlasidandir. Ushbu tadbirlar uchun jami 158 mln. so‘m mablag‘ sarflandi.

Shu o‘rinda, xodimlarning huquqiy masalalari ham chetda qolgani yo‘q. Eslatib o‘tamiz, Mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi taqdimnomalar tahlil qilganda kasaba uyushmasi o‘z a’zolarini mehnat qonunchiligi doirasida himoya qiladi. Bu borada, ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga kasaba uyushma qo‘mitasining roziligini so‘rash uchun 8 nafar xodimga nisbatan taqdimnoma kiritilgan. Shundan, 4 nafar xodimlar bilan kasaba uyushmasi roziligi bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 4 nafariga esa ma’lum sabablariga ko‘ra kasaba uyushmasi roziligi berilmadi va xodimlarning mehnat faoliyati davom etishi ta’minlangan.

2023-yilning yozgi mavsumi davomida korxona tasarrufidagi “Kimyogar” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida jami 1140 nafar korxona ishchi-xodimlarining farzandlari sog‘lomlashtirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda rejadan ortiq, ya’ni, 1146 nafar bolalar hordiq chiqarishlari amalga oshirildi. Kelgusida ham yuqoridagi kabi ishlar muntazam ravishda amalga oshirib boriladi.

**Aziz hamkasblar! Barchalaringizni “11 – noyabr O‘zbekiston Kasaba uyushmalari kuni” munosabati bilan tabriklaymiz! Siz va siz orqali oila a’zolaringizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadoningizga tinchlik-xotirjamlik, kasaba uyushmasi qo‘mitasi rivoji yo‘lidagi hamda mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini ta’minlashdagi fidokorona faoliyatlaringizda yangi yutuq va omadlar tilab qolamiz!**

**“FARG‘ONAAZOT” AJ KASABA UYUSHMA QO‘MITASI.**





**Jamiyatimiz o‘zining sifatli mineral o‘g‘itlaridan tashqari yashil olami bilan viloyatimiz nazariga tushgan. Har bir korxonaga tashrif buyurgan mehmon ko‘p yillik daraxtlar, gullar va ekinlarimizga ta’rif bermay ketmaydi. Bunday taassurotning paydo bo‘lishiga sabab, katta bir gigant korxona, turli xil kimyoviy mahsulotlar makonida yashil o‘simliklarni barq urib turishidir.**

## BIZNING SHIOR “O‘ZIMIZDAN KELAJAK AVLODGA SOG‘LOM TABIAT QOLDIRAMIZ”

Bunday go‘zal manzarani barpo etish, parvarish qilish uchun qanchalik kuch va vaqt sarflanishiga to‘xtalib o‘tsak, biz jamiyatning barcha sex va boshqarmalari, ayniqsa, jamiyatimizning Xo‘jalik sexi xodimlarining ari kabi tinimsiz mehnatlari yotganligiga amin bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida korxona o‘tgan yilda ko‘chat ekish bo‘yicha viloyatdagi muassasalar ichida peshqadam o‘rinlarni egallagan. Joriy yil ham bundan mustasno bo‘lgani yo‘q. Jamiyatning ichki va tashqi hududlariga 2023-yilda 1 500 000 mingdan ziyod mevali va manzarali daraxtlar ekildi. Uning nazoratini shaxsan korxona rahbariyati hamda mutassaddi boshqarmalar olib bormoqdalar.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlarning maqsadi avvalambor, korxona ishchi-xodimlarini zaharli muhitdan saqlash, viloyatimiz aholisini toza havodan nafas olishlarini ta’minlash hamda o‘zimizdan kelajak avlodga sog‘lom tabiat qoldirishdir.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**



## O‘Z TILINI QO‘YIB, O‘ZGA TILGA QARAM BO‘LGANLAR…



**Dunyoda biron til yo‘qki, insonning fikri, orzu-armonlari, shodlik-qayg‘usi, his-tuyg‘usini o‘z ona tili kabi ifodalay olsa. Inson ilk bor ona allasini, atrofdagilarning mehrli munosabatini o‘z ona tilida eshitib, idrok etadi. O‘zi ham borliq olamni shu tilda ifodalay boshlaydi. O‘z ona tilida xatosiz yozish va xatosiz gapirish insonning yuksak ma’naviyatga, tafakkurga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ona tili ham Ona kabi, Vatan kabi yagonadir.**

Hozirgi kunda yoshlar o‘rtasida chet tillarini o‘rganish uchun ishtiyoq juda kuchli va bunga keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu, albatta, quvonarli hol, lekin eng avval o‘z ona tilini mukammal bilishi, uning sir-asrorlaridan xabardor bo‘lishi kerak. O‘z ona tili sehrini his etmagan, undagi asarlar mazmunini to‘liq anglab yetmagan inson boshqa til yoki undagi asarlar, nechog‘lik durdona va betakror bo‘lmasin, mag‘zini chaqolmaydi. Xalqning taqdiri o‘sha xalq tilining taqdiri bilan bog‘liq. Bu haqiqat azaliy va abadiy bo‘lib, tarix buni ko‘p bora isbot qiladi. Bizning ajdodlarimiz o‘z tili bo‘la turib boshqa tildagi so‘zlarini noo‘rin qabul qilish o‘sha til egalariga ma’naviy-mafkuraviy qaramlikni bildiradi deb hisoblaydi.

Eng qadimgi turkiy yodgorliklarimiz, olimlar V-VIII asrga oid deb hisoblagan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklaridan biri “Tunyuquq bitiktoshi”da shunday satrlar uchraydi:

— “Turk beklari turkcha otini tashlab, tabg‘ach beklarining tabg‘achcha otini qabul qilib, tabg‘ach xoqoniga qaram bo‘ldi. Bek bo‘ladigan o‘g‘il bolasi tabg‘ach xalqiga qul bo‘ldi, suluv qizi cho‘ri bo‘ldi”.

Tilshunos U. Qo‘ziйev bu holatni turk xoqonligi parchalanib ketishining ichki, sezilmas sabablaridan biri deb izohlaydi. Shuni doim ta’kidlash kerakki, O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi ham Mustaqillikka qo‘yilgan ilk qadamdir.

Bugungi kun yoshlari internet tarmoqlarida va muloqotlarda o‘z ismidan ko‘ra inglizcha nomlar, o‘zlarining tabiri bilan aytganda, nicknamelar (Coco, Monika, Nida, Nora, Nika, M. Doni, Mr Bob, Medi kabi) bilan murojaat qilishlari urf bo‘lgan. Biz ham o‘z navbatida, bu holat yoshlarimiz ongi-shuuriga salbiy ta’sir etishini, o‘sha til egalari ismlariga taqlid qilinayotgani sezilarli-sezilmas mutelikni yuzaga keltirayotganini yoshlarga anglatib qo‘yimiz kerak. Milliy qadriyatlarimizdan biri – ona tilining sofligini ta’minlash va qadrini yuksaltirish uchun bugunning barcha ziyolilari mas’uldirlar.

Filologiya fanlari doktori, professor N. Mahmudov “O‘qituvchi nutq madaniyati” asarida shunday yozadi: “Varvarizmlar, ya’ni ona tiliga o‘zlashmagan, boshqa til hodisasi sifatida qo‘llangan so‘z va iboralar tilning sofligini buzadigan unsur sifatida qaraladi. Rus, ingliz, arab, fors va boshqa tillardagi so‘zlarni ishlatish nutqning sofligini buzadi. Bu holat faqat ona tiliga emas, horijiy tillarga ham salbiy munosabatni ifodalaydi. Ba’zilar varvarizmlarni qo‘llash bilan o‘zlarining boshqa tillarni ham bilishini, madaniy saviyasi yuqoriligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Aslida bu madaniy-ma’rifiy saviyani pastligi, tafakkur torligi, ma’naviyatning qashshoqligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nopisandlikning ildiz otganligidir”.

Buyuk ajdodlarimiz uchun tilimizning sofligi, nufuzi va qadr-qimmati doimo diqqat markazda bo‘lib kelgan. Mahmud Qoshg‘ariy mavjud so‘z o‘rniga boshqa tildagi so‘zni qo‘llash “zararli” deb hisoblagan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi buyuk ajdodlarimiz tilning ahamiyati naqadar yuksak ekanligini qayta-qayta e’tirof etganlar. O‘zbek adabiy tilining asoschisi, hazrat Navoiy o‘z tilida she’r yozmaganlarni o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida qattiq tanqid qiladi.

Ma’rifatparvarlarimiz, xususan, Fitrat, Behbudiy, Ibrat kabi fidoyi jadidlar o‘zbek tilini arabcha, forscha so‘zlardan tozalash uchun amaliy sa’y-harakatlar qilganlar. Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti doimiy ravishda til muammolarini ko‘taradi. Ma’rifatparvar shoir Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak – millat ruhuni yo‘qotmakdir”.

Demak, ona tilini saqlab qolish o‘sha xalqning kelajagi va taraqqiyotini saqlab qolishdir. Bizning vazifamiz ajdodlardan qolgan bu buyuk xazinani asrab-avaylash bilan birga, uni boyitish, mavqeyini oshirish, keyingi avlodlarga butunligicha yetkazishdan iboratdir.

**Muqaddamxon EHSANOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, KIUF o‘qituvchisi.**

## “AVTOMOBILISTLAR KUNI” MUBORAK BO‘LSIN!



**Mamlakatimizda nishonlanishi an’anaga aylangan “Avtomobilistlar kuni” munosabati bilan, korxona rahbariyati tomonidan jamiyatning Avtotransport sexida mazkur sohada uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib o‘zining halol mehnati bilan hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan xodimlar taqdirlandilar.**

**Avtotransport sexining 14 nafar haydovchisiga jamiyatning Faxriy yorliqlari hamda kasaba uyushma qo‘mitasining esdalik sovg‘alari topshirildi.**

**Ushbu ajoyib bayram munosabati bilan, uzog‘imizni yaqin, mushkulimizni oson qiluvchi kasb mutaxassislarini korxona rahbariyati hamda “Kimyogar” gazetasi tahririyati tomonidan tabriklaymiz! Sizlarga ulkan muvaffaqiyatlar va omadlar tilab qolamiz. Hayot yo‘lingiz oson va to‘siqsiz bo‘lsin. Yaxshi kayfiyat, sihat-salomatlik doimo hamrohingiz bo‘lsin!**

## KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK

**Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha yerlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarliklar boshlab yuborilgan. Qishning sovuq kunlarini betalofat, xavfsiz o‘tkazish maqsadida, tayyorgarlik ishlari sifatli bajarilib, hududlarda energiya tejamkorlik madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilmoqda.**

Mavsumga tayyorgarlik ko‘rishdan asosiy maqsad fuqarolarning huquqiy-ma’naviy va moddiy manfaatlarini ko‘zlagan holda respublikamizdagi iqtisodiyot tarmoqlari va aholi turar joylarini kuzgi-qishki mavsumga tayyorlash, isitish va yoritish tarmoqlarini muntazam kamchiliklarsiz ishlashini yo‘lga qo‘yish va fuqarolar ushbu mavsumni yong‘in va boshqa talofatlarsiz o‘tkazishni tashkil etishdan iboratdir.

“Farg‘onaazot” AJ OBYOXTTEB va uning quyi tizimidagi xodimlar tomonidan aholi yashash uylari, tashkilot, muassasalar va boshqa maskanlarda kuz-qish mavsumida isitish va yoritish tizimlarini barqaror ishlashini ta’minlash jarayonida yong‘inlarni oldini olish, yong‘in keltirib chiqaruvchi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik, qisqa qilib aytganda, kuz-qish mavsumida, davlat va fuqarolar mol-mulklarini yong‘indan asrash, insonlar kuyib tan jarohatlari olishlariga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Kuzgi-qishgi mavsumga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlash jarayoni joriy yil boshidan shu kungacha viloyat hududida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ishlarni samarali amalga oshirishda dasturilamal bo‘lib kelmoqda.

O‘tgan davr maboynida viloyat hududida ro‘yxatga olingan yong‘inlarning asosiy qismini aholi turar joylarida sodir bo‘lganligini hisobga olib, Yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlari aholi yashash uylarni va ko‘p qavatli uylardagi xonadonlarni yong‘in xavfsizligi holatini o‘rganib, fuqarolar bilan kuz-qish mavsumida yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi, mavsum oldidan dudbo‘ronlar va gaz elektr uskunlarini sozligini tekshirish va gaz, elektr ta’minotidan qoida talablari asosida foydalanishi yuzasidan yo‘riqnomalar va tushuntirish ishlari olib borishmoqda.

Aziz fuqarolar! Mavsumga betalofat o‘tkazish barcha fuqarolar va korxona, tashkilot, muassasa rahbarlarining zimmasidagi muhim vazifa ekanligini unitmasligimiz zarur!

**A. AKBAROV,
“Farg‘onaazot” AJ OBYOXTTEB inspektori, kapitan.**

# ПРЕДСТАВИТЕЛИ НАРОДНО-ДЕМОКРАТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ ПОСЕТИЛИ НАШЕ ПРЕДПРИЯТИЕ

**26 октября текущего года в актовом зале АО "Farg'onaazot" состоялся круглый стол посвящённый разъяснению целей и задач, определённых указом Президента Республики Узбекистан О СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030» от 11 сентября 2023 года, а также раскрытию той роли которая занимает Народно-демократическая партия Узбекистана в данных процессах.**

O'zbekiston ХДФ Xalq demokratik partiyasi







На данном мероприятии принимали участие Руководитель молодежного сектора Центрального совета НДП Узбекистана, заместитель председателя Молодежного парламента при Сенате Олий Мажлиса Мухсиддин Низомиддинов, главный советник Центрального совета НДП Узбекистана, председатель комитета Молодежного парламента Шохрух Уктамов, председатель Ферганского городского совета НДП Узбекистана Алишер Умаров, заместитель председателя Ферганского областного совета Шохрух Мамаджонов и молодёжь предприятия.

Мероприятие открыл председатель профсоюзного комитета АО "Farg'onaazot" Ильхом Абдувохидов. В своей речи Илхом Рахимович выразил слова благодарности гостям круглого стола за то, что они откликнулись на приглашение и приняли участие в сегодняшнем мероприятии. В своём приветственном слове председатель профсоюзного комитета поздравил всех членов партии с 32 годовщиной со дня образования Народно–демократической партии Узбекистана. Продолжая своё выступление Ильхом Рахимович отметил, что принятая новая конституция нашей страны создала прочную правовую основу по комплексному упорядочению всех направлений жизни общества, что отражается в Стратегии «Узбекистан-2030».

Затем слово было предоставлено Мухсиддину Низомиддинову. В своём выступлении докладчик подробно рассказал собравшимся о целях и задачах партии в свете принятой Стратегии «Узбекистан-2030». В частности, руководитель молодежного сектора Центрального совета НДП Узбекистана сказал следующее:

За прошедший период со дня обретения независимости нашей страной впервые была утверждена стратегия национального развития, охватывающее столь длительный период, 7 лет. Такая высокая планка с одной стороны является отражением стабильности, развития и созидания всех сфер жизни государства и общества, с другой стороны является отчётливым выражением доверия и поощрения народом и мировым сообществом поступательных и интенсивных демократических реформ, проводимых в нашей стране.

В данном программном документе нашли отражение следующие идеи:

- вхождение в число государств с доходом выше среднего путем устойчивого экономического развития;
- создание системы образования, медицины и социальной защиты, полностью соответствующей потребностям народа и международным стандартам;
- создание благоприятных экологических условий для населения;
- построение служащего народу справедливого и современного государства;
- гарантированное обеспечение суверенитета и безопасности страны.

Далее слово было предоставлено Шохруху Уктамову. Развивая выступление предыдущего докладчика председатель комитета Молодежного парламента заострил внимание участников круглого стола на следующих аспектах:

- Стратегия «Узбекистан-2030» охватывает пять приоритетных направлений. Выдвинуто 100 важных целей, среди которых 44 цели направлены на создание подходящих условий для реализации каждым человеком своего потенциала, 17 – на обеспечение благосостояния населения посредством устойчивого экономического роста, 12 – на экономию водных ресурсов и защиту окружающей среды, 16 – на обеспечение верховенства закона, организацию государственного управления, направленного «на службу народу», 11 – на последовательное продолжение политики, основанной на принципе безопасного и миролюбивого государства.

Подытоживая своё выступление, докладчик призвал молодёжь предприятия к политической активности, установления общественного контроля за ходом реализации на местах Стратегии «Узбекистан-2030».

Согласно регламента проведения круглого стола слово было предоставлено Алишеру Умарову. Председатель Ферганского городского совета НДП Узбекистана поблагодарил руководство предприятия за создание условий для одной из самых многочисленных ячеек НДП Узбекистана осуществляющим свою деятельность в АО «Farg'onaazot», многие активные члены которого сегодня являясь депутатами городского и областного Кенгашей принимают активное участие в политической и общественной жизни нашего города, области.

- Сегодня во главе партийной ячейки НДПУ на предприятии стоит молодой и перспективный руководитель Маннонхон Маликович Тилляходжаев, он наряду со своими прямыми обязанностями активно участвует и в депутатской деятельности. Маннонхон Маликович в Ферганском городском Кенгаше представляет не только своих избирателей, но членов НДПУ предприятия. Мы хорошо знаем его по депутатской деятельности не одно обращение жителей его участка, обратившегося к нему, не остаётся без внимания. Сейчас необходимо более активно привлекать новых членов партии особенно из числа молодёжи предприятия в проведении подобных мероприятий – заявил докладчик.

На мероприятии также подробно обсуждались некоторые цели этого важного документа. В частности, поощрение предпринимательской деятельности молодёжи, создание условий для получения молодёжью высшего образования и овладении ими востребованных на рынке труда профессий, обеспечении занятости молодёжи, поощрение компьютерной грамотности среди молодёжи, развитие молодёжного спорта и туризма, в целях повышения политической активности девушек выделение дополнительных квот на выборах депутатов, а также избрание в сенат лиц с инвалидностью.

Прозвучавшие в ходе круглого стола содержательные доклады были приняты молодёжью предприятия с большим интересом и воодушевлением.

На встрече докладчики ответили на все интересующие вопросы молодых сотрудников предприятия.

В завершение мероприятия гости и молодёжь предприятия приняли участие в церемонии посадки деревьев в рамках национального проекта «Yashil makon».

Круглый стол, посвящённый раскрытию сути целей и задач Стратегии «Узбекистан-2030», прошёл на высоком уровне.

# КАК ОБЕЗОПАСИТЬ СЕБЯ ОТ ПРОСТУДЫ И ГРИППА



**Как известно с наступлением первых холодов осенью увеличивается количество обращений в медицинские учреждения больных, болеющих ринитом, тонзиллитом, фарингитом и другими острыми респираторными заболеваниями. В ЛОДЦ также обращаются работники предприятия за медицинской помощью. Так в первой половине октября количество работников, заболевших ОРВИ составило 81 человек.**

О том, как обезопасить себя от ОРВИ расскажет врач эпидимиолог ЛОДЦ Тиллабаева Наргизахон Хабибуллаевна. Как видно из приведённых цифр, вспышки простудных заболеваний приходятся на межсезонье.

Острое инфекционно-респираторное заболевание вирусной природы или иначе говоря грипп, как и любое другое вирусное заболевание, имеет свои причины развития. Её диагностирование и выявления на ранних стадиях заболевания позволяет перенести болезнь без тяжёлых осложнений.

Вирус гриппа очень заразен — то есть попадание его в организм человека в большинстве случаев приводит к развитию заболевания. Заболевание сопровождается повышением температуры тела, общее состояние обычно улучшается через 3-5 дней.

Грипп происходит от французского слова grippe и немецкого grippen, что переводиться, как «схватывать».

**Симптомы гриппа, вызванные интоксикацией:**

(Очень быстро (за 3-4 часа) появление признаков интоксикации)

- Повышение температуры тела — 39°C и выше;
- Сильный тремор;
- Слабость;
- Боль в мышцах и суставах;
- Сильная головная боль
- Слезящиеся глаза;
- Чувствительность к свету.

Параллельно с интоксикацией наблюдаются респираторные симптомы:

- Больное горло;
- Сухой кашель;
- Насморк;
- Чихание.

Иногда наблюдаются боли в животе и диарея. При гриппе высокая температура тела может сохраняться в течение нескольких дней, часто не снижаясь под действием жаропонижающих препаратов. Если заболевание протекает неосложненно, грипп длится 7-10 дней. За это время симптомы гриппа могут постепенно исчезнуть, но общая слабость может сохраняться до двух недель.

**ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ:** поражение слизистой верхних дыхательных путей вирусами гриппа. Источником инфекции (заболевания) является человек, зараженный гриппом. Основной путь передачи заболевания воздушно-капельный: кашель, чихание, разговор и даже простое дыхание. Но вирус может передаваться и бытовым путем – через носовые платки, продукты питания, простыни. Вирус гриппа очень заразен!

**ЛЕЧЕНИЕ И ОБЛЕГЧЕНИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ:** При лечении гриппа требуется комплексный подход. Однако главную роль в борьбе с гриппом и выздоровлении организма играет иммунная система, в связи с чем необходимо принимать меры по стимуляции иммунной системы. Рекомендуется полноценный отдых, обильное питье, ограничение вредных привычек (питье, курение). В то же время эффективные противовирусные препараты значительно уменьшают продолжительность, лихорадку и другие симптомы гриппа.

**Другие используемые препараты включают:**

- Симптоматические терапевтические препараты (жаропонижающие, отхаркивающие);
- Иммуностимуляторы – такими свойствами особенно богат витамин C;
- Интерферон;
- Противовирусные препараты на разных стадиях заболевания;
- Антигистаминные препараты (по показаниям).

Антибиотики назначают только при вторичных бактериальных инфекциях, они вообще не эффективны против вирусов, но люди часто принимают антибиотики без рецепта врача, когда у них наблюдаются симптомы простуды или гриппа. Прием антибиотиков против вирусов не только неэффективен, но и повышает устойчивость бактерий к антибиотикам.

**ДИАГНОСТИКА И ВЫЯВЛЕНИЕ:** Диагностика гриппа обычно основывается на клиническом обследовании. В случае резкого повышения температуры необходимо как можно скорее обратиться к врачу. В случае гриппа очень важен врачебный контроль, поскольку он позволяет вовремя обнаружить возникновение возможных бактериальных осложнений. Появление осложнений проявляется такими признаками, как повторное повышение температуры, усиление кашля, ухудшение общего состояния после незначительного улучшения и обычно соответствует 4-5 дню болезни. В этом случае необходимо провести дополнительные обследования – общий анализ крови, рентгенография грудной клетки.

**ОСЛОЖНЕНИЯ:** В связи с тем, что вирус гриппа поражает эпителиальные клетки дыхательных путей, в результате осложнений заболевания возможно возникновение бактериальных заболеваний, в том числе бронхита, пневмонии, отита, синусита или других воспалений носовых пазух. Примером серьезных бактериальных осложнений является менингит – воспаление коры головного мозга. Грипп также может обострить имеющиеся у пациента хронические заболевания.

**ЧТО НЕОБХОИМО ДЕЛАТЬ ЧТОБЫ НЕ ЗАБОЛЕТЬ ГРИППОМ:** Самый эффективный способ предотвратить грипп — поддерживать иммунную систему в хорошей форме круглый год.

**Существуют следующие способы укрепления иммунитета:**

- Закаливание;
- Ведение физически активного образа жизни;
- Правильное и сбалансированное питание;

Кроме того, максимальное пребывание вдали от людных мест в сезон простудных заболеваний или ношение маски в людных местах – один из эффективных способов профилактики ОРВИ.

**ПРОФИЛАКТИКА:** Основным методом лечения является вакцинация. Вакцинация проводится против конкретного типа (штамма) вируса за 2-3 месяца до начала сезона гриппа (обычно в октябре-ноябре). Вакцинация более эффективна против большего количества штаммов вируса и большего числа людей. В данном случае это позволяет защитить большие социальные группы населения.

**Профилактические меры во время эпидемий:**

- использование противовирусных препаратов;
- соблюдение правил гигиены;
- дистанцирование от больных гриппом;
- ношение специальных масок;
- обращайте внимание на чистоту (личную гигиену), когда члены семьи болеют;
- частое проветривание помещения.

Обобщая сказанное считаю необходимым отметить-лучше предотвратить болезнь, чем бороться с её последствиями. Поэтому необходимо не допускать авитаминоза организма, также важен здоровый сон и регулярные занятия спортом. Общее поддержание здорового образа жизни, регулярные прогулки на свежем воздухе, закаливание и правильное питание помогут естественным образом укрепить иммунитет и защититься от сезонных простуд.

**Наргизахон ТИЛЛАБАЕВА,**
**врач эпидемиолог ЛОДЦ.**

# ДОБРОСОВЕСТНЫЙ ТРУД ВСЕГДА В ПОЧЁТЕ



**Сегодняшний наш собеседник начальник участка грузоподъёмных работ Автотранспортного цеха Сулаймонов Абдуманнап Ганижанович, человек, чья трудовая деятельность вот уже 15 лет неразрывно связана с нашим предприятием. На предприятии наверное нет такого человека, который не сталкивался бы с ним по долгу службы, ведь он руководит одним из важных участков. Сегодня в его ведении находятся 5 кранов на электрической тяге марки 63/100 СКГ, которые обслуживают 8 крановщиков, 2 электромонтёра и слесарь, которые имеют большой опыт работы. Руководимый им участок грузоподъёмных работ всегда задействован во время капитального ремонта цехов предприятия. Как характеризуют его начальник цеха ЦРО Рахматов Бахром Мадаминович в нём сочетаются такие черты характера как требовательность, принципиальность, дружелюбие, открытось и честность. Также он обладает отличными организаторскими способностями, всегда точно и в установленные сроки выполняет все поставленные производственные задачи.**

**— Абдуманнап Ганижанович, наверное не все знают что вы родились и выросли в городе Узгене Ошской области, скажите пожалуйста, как случилось, что вся ваша сознательная жизнь прошла в Узбекистане?**

— Да, вы правы, волею судьбы по окончании школы поступил на очное отделение Андижанского строительного техникума, по окончании которого пошёл работать по своей специальности в Ремонтно-строительный трест Андижанской области, где и освоил ряд строительных профессий. Затем в 1994 году я перехал в Фергану, где также работал в Строительном тресте №8.

Как известно до прихода на предприятие вы в разные годы работали на различных руководящих должностях, расскажите об этом периоде подробнее.

с 1995 года по 2007 год я работал в Ферганском монтажном управлении, начинал я работу простым монтажником, за короткий период руководство монтажного управления заметило меня и я был переведён мастером. В 2007 году я был назначен заместителем директора Ферганского управления «Двигательмонтаж», затем исполнял должности главного инженера, директора.

**— Абдуманнап Ганижанович, поворотным моментом вашей трудовой биографии является ваша деятельность в АО "Farg'onaazot", расскажите пожалуйста нашим читателям о своей деятельности на нашем предприятии?**

— Во время моей работы в Ферганском управлении «Двигательмонтаж», руководимый мною участок был привлечен на монтажные работы в вводимый тогда в строй новые цеха ХМД, АС-72М и АК-72М. Хочу отметить, что все монтажные работы возложенные на «Двигательмонтаж» были выполнены в полном объёме в установленные сроки. Мои организаторские качества были замечены руководством АО "Farg'onaazot" и в скором времени меня пригласили на работу.

В АО "Farg'onaazot" меня назначили старшим мастером по ремонту оборудования цеха централизованного ремонта оборудования, через год был переведён начальником участка ремонтных и монтажных работ данного цеха. В 2011 году руководство предприятия назначило меня на должность заместителя начальника цеха централизованного ремонта оборудования. С 2013 года по нынешнее время являюсь начальником участка для проведения грузоподъёмных работ при ремонте и монтаже технологического оборудования и трубопроводов.

**— Расскажите пожалуйста о своей семье.**

— Женат имею троих сыновей, кстати жена работает на нашем предприятии начальником АХО, сыновья выбрали профессию, связанную с архитектурой и строительством, на сегодняшний день совмещают учебу в институте с работой.

**15 лет стабильной работы — это не малый срок, всего чего вы добились вы достигли благодаря усердному труду. Воспользовавшись представленной возможностью от имени редакции газеты «Кимёгар» желаем вам плодотворной работы и новых трудовых свершений, здоровья, удачи и всего наилучшего.**

**Беседу провел Отабек БЕГИДЖАНОВ.**

# ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

## ПРОВЕДЕНИЯ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО НЕСТАНДАРТНЫМ СИТУАЦИЯМ В ЦЕХАХ И СТРУКТУРНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ АО «FARG'ONAAZOT»

**На основании «Положения о порядке проведения учебно-тренировочных занятий по нестандартным ситуациям в цехах и подразделениях АО «Farg'onaazot», которое определяет единые требования о порядке проведения учебно-тренировочных занятий по нестандартным ситуациям в основных технологических и вспомогательных цехах, участках для рабочих, служащих, инженерно-технических работников на территории АО «Farg'onaazot». Выполнение изложенных требований положения обязательно для всех рабочих, служащих, инженерно-технических работников на территории АО «Farg'onaazot».**

**Целью проведения учебно-тренировочных занятий, является:**

- определить готовность персонала (сменного и вспомогательного) цеха к нестандартным ситуациям на опасном производственном объекте;
- разработать мероприятия, направленные на повышение противоаварийной защиты и снижение масштабов последствий аварий и их предотвращения в дальнейшем;
- и выявление достаточности принятых мер по предупреждению нестандартных и аварийных ситуаций на объекте.

Ежегодно, в течение года: в цехах, на участках, в отделениях, на установках в каждой смене и с дневным персоналом по нестандартным ситуациям, предусмотренными вопросниками, составленными по цехам и структурным подразделениям, проводятся учебно-тренировочные занятия (УТЗ) согласно графику, утвержденному техническим руководителем предприятия, и согласованного с начальником управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО, начальником ОКП, УНТР, главными специалистами по принадлежности.

Что же такое нестандартная ситуация? Это ситуация, возникающая в результате отклонений от оптимального или ожидаемого режима деятельности, связанных, как правило, со значительным усложнением процесса деятельности в результате возникновения аварий, непредвиденных обстоятельств или из-за резкого снижения человеческих возможностей, появления высоких опасностей и т. п.

**К основным видам нестандартных ситуаций, следует относить:**

- дорожно-транспортное происшествие (ДТП);
- падение с высоты (частей оборудования и металлоконструкций);
- падение, обрушения, обвалы предметов, материалов, земли;
- воздействие движущихся, разлетающихся, вращающихся предметов и деталей;
- резкое повышение или понижение параметров температуры и давления;
- воздействие вредных веществ;
- физические перегрузки;
- внезапное отключение энергоресурсов (газ, пар, вода, электроэнергия, технологический воздух, азот и т.д.)
- повреждения в результате контакта с животными, насекомыми и пресмыкающимися;
- повреждение при стихийных бедствиях и пр.

Основными причинами нестандартных ситуаций, можно назвать следующие:

- конструктивные недостатки, несовершенство, недостаточная надежность машин, механизмов, оборудования;
- эксплуатация неисправных машин, механизмов, оборудования;
- несовершенство технологического процесса;
- нарушение технологического процесса;
- нарушение требований безопасности при эксплуатации транспортных средств;
- нарушение правил дорожного движения;
- неудовлетворительная организация производства работ;
- неудовлетворительное содержание и недостатки в организации рабочих мест;
- неудовлетворительное техническое состояние зданий, сооружений, территорий;
- недостатки в обучении безопасным приемам труда;
- неприменение средств индивидуальной защиты;
- неприменение средств коллективной защиты;
- нарушение трудовой и производственной дисциплины;
- использование рабочего не по специальности и пр.

**Все перечисленные выше причины нестандартных ситуаций можно разделить на три типа:**

- Технические;
- Организационные;
- Личностные (психофизиологические).

А также имеются Факторы, влияющие на работника:

- связанные с так называемым «человеческим фактором» (действиями непосредственного исполнителя);
- организацией работ (действиями совокупного исполнителя – работников и работодателя);
- техническими проблемами (неустойчивым технологическим процессом, экстремальными изменениями рабочей среды, отказами и дефектами оборудования).

«Интеллектуальные» ошибки связаны, в основном, с недостаточными знаниями работника, когда он неправильно оценивает (с позиции безопасности) производственную ситуацию, либо неправильно для данной ситуации применяет известное ему правило безопасности, либо плохо знает или совсем не знает необходимые для обеспечения реальной безопасности правила. Более того, нередко оказывается, что действующие правила (инструкции) не предусматривали вдруг сложившуюся опасную ситуацию.

Все выше сказанное является неотъемлемой частью нашей жизни и деятельности на предприятии, что приводит нас к мысли о необходимости постоянно быть готовым к любим ситуациям, которые могут привести к аварии, инциденту или возникновению нестандартной ситуации, несвязанной с деятельностью, а просто по неосторожности или невнимательности. Для этих целей и организованы учебно-тренировочные занятия на предприятии.

**Александра АНОРИЙ,**
**ведущий специалист по радиационной безопасности управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО.**



# 21 ОКТЯБРЯ — ДЕНЬ ПРАЗДНИКА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА



**На нашем предприятии стало традицией широко отмечать “21- октября День праздника узбекского языка”. И этот год не стал исключением, так в преддверии Дня праздника узбекского языка был проведён конкурс «Китобхон - ходим». Конкурс книголюбов среди сотрудников предприятия проходил под девизом «Родной язык-это душа нации». В конкурсе участвовали рабочие и служащие всех структурных подразделений общества, кто изъявил желание блеснуть эрудицией и знаниями в области литературы.**

Для обеспечения прозрачности и объективности конкурса, в жюри были приглашены специалисты филологи узбекского языка, осуществляющие свою деятельность в образовательных учреждениях области. В частности, членами жюри были преподаватель узбекского языка Корейского международного университета KIUF, профессор Мукаддам Эхсанова, сотрудник Ферганского областного Информационно-библиотечного центра имени Ахмада аль-Фарғони Гуласал Валиева.

В соответствии с Положением о проведении конкурса, данный этап был проведен по направлениям: «Знаток узбекской литературы», «Знаток мировой литературы» и «Моё любимое произведение». В направлениях «Знаток узбекской литературы» и «Знаток мировой литературы» книголюбам были представлены вопросы, состоящие из лучших образцов узбекской и зарубежной литературы, в частности, конкурсанты должны были ответить на следующие вопросы билета: кто герои произведения, какому произведению относиться представленный отрывок. В направлении «Моё любимое произведение», участники конкурса должны были представить членам жюри письменные работы в виде аннотации к художественным произведениям на выбор, где должны были раскрыть главную идею, содержание произведения и сделать свои выводы из прочитанного. Каждый этап конкурса оценивался жюри отдельно.

Необходимо особо отметить, что, своими результатами конкурсанты могли ознакомиться сразу, а это в свою очередь добавляло атмосферу состязательности и беспристрастности конкурсу. Не смотря на то что, все конкурсанты демонстрировали отличные знания по литературе, членам жюри необходимо было выбрать среди претендентов самого лучшего для участия в следующем этапе конкурса, проводимого АО «O‘zkimyosanoat» среди работников предприятий химической промышленности. Итак, все три условия были беспристрастно оценены членами жюри и оглашены результаты: набравший наибольшее количество баллов в конкурсе, работник цеха Аммиак-3 Содикжон Кодиров занял первое место и был удостоен денежной премией в размере 8 млн. сумов, вторые и третьи места поделили между собой работники цеха по производству Мочевины Манзура Позилова, которая была удостоена денежной премией в 5 млн. сумов и Мухлиса Икромалиева с денежной премией в 3 млн. сумов.

В конце необходимо особо отметить, что качество проведения подобных духовно – просветительских мероприятий, степень подготовки самих участников и количество желающих участвовать в конкурсе год от года растёт. А это в свою очередь свидетельствует, что молодежь нашего предприятия усердно работает над собственным самообразованием, читает много литературы, тем самым расширяет свой кругозор.

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОШЛА БЛАГОТВОРИТЕЛЬНАЯ АКЦИЯ ПОД ЛОЗУНГОМ «Я ДОНОР»

**12 октября текущего года на нашем предприятии прошла благотворительная акция под лозунгом «Я донор». В коллективах отделов и цехов предприятия нашлось немало сотрудников, которые приняли активное участие в данной благотворительной акции.**





Сбор донорской крови осуществляли работники Ферганской областной станции по переливанию крови. К слову сказать, на предприятии были созданы все условия для эффективной организации данного мероприятия, в частности предварительно была проведена разъяснительная работа среди трудового коллектива, на котором уделялось внимание значению донорства крови. Также были предоставлены помещения медицинского пункта I-промышленной площадки, отвечающие всем санитарным нормам.

В результате проведённого мероприятия более ста работников предприятия внесли посильную помощь в пополнении областного банка крови. Что в свою очередь окажет содействие в выздоровлении больных детей и людей, нуждающихся в крови вследствии различных заболеваний или несчастных случаев.

Выражаем благодарность всем участникам акции «Я донор» за сопричастность благородному делу помощи людям, страдающим трудноизлечимыми заболеваниями и так нуждающимся в крови.




Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.

Kimyogar
MUASSIS:
«Farg`onaazot» aksiyadorlik jamiyati
ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E’zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108, Farg‘ona shahri, Sanoat ko‘chasi, 222.
«Farg‘onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

*Gazeta Farg‘ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro‘yxatga olingan.*

**Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.**
Bosmaxona manzili: Marg‘ilon shahar, Turkiston ko‘chasi 236 «B» - uy. Qog‘oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 28.10.2023-yil.
**Ushbu songa mas’ul: E’zozxon ABDULLAYEVA.**
**Rasmlar muallifi: Mirjalol G‘ULOMNAZIROV.**

*Ushbu gazeta «Farg‘onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.*